

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A.Abdualiyeva	
Markaziy Osiyo o'rtta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A.Nishonov	
Farg'ona vodiysida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A.Aloxunov, B.B.Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A.Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X.Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X.Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V.Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M.Maxmudov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhojirlari taqdiri	695
A.M.Maxmudov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK

K.A.Topvoldiyev	
Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
H.K.Sabirov	
Средняя Азия в путевых заметках Ф.С.Ефремова	706
A.P.Kosimov	
Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
H.A.Jo'rayev, Y.I.Nishanov	
Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
H.M.Karimova	
Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
Y.I.Nishanov	
Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
I.H.Doroina	
«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
Э.Ф.Гиздулин	
Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
X.Sharifiddinov	
Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
E.Ibragimova, N.Sharafutdinova	
Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
G.V.Abdullayeva	
Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
S.A.Xodjayev, Ch.I.Turg'unova	
O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
X.A.Abdulxamidova, D.U.Jamoliddinova	
Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
X.J.Jamolova	
Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
M.M.Xamidov	
O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
R.M.Umurzakov	
Bola obrazining nazariy muammolari	761
J.B.Sayidolimov	
"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765



UO'K: 94(575.3)"192/193":314.15:325.1

XX ASRNING 20-30 YILLARDA BUXORO AMIRLIGI MUHOJIRLARI TAQDIRI

СУДЬБЫ ЭМИГРАНТОВ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В 20-30-Е ГОДЫ XX ВЕКА

THE FATE OF EMIGRANTS OF THE BUKHARA EMIRATE IN THE 20-30S OF THE XX CENTURY

Maxmudov Akmal Mannonjonovich

Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası dotsent v.b.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro amirligidan muhojirlikka mahkum bo'lgan amir va u bilan birga qo'shni davlatga ko'chgan bek, ayon, amaldorlar, tushunib-tushunmay amirga ergashgan dexqon, chorvador, hunarmand, mardikor kabi oddiy xalq vakillari, sovet rejimiga qarshi kurashgan va mag'lubiyatga uchragan «basmachi» to'dalarning qo'rboshilari hamda ularning yigitlari, quloq qilingan, yer-suv islohoti tufayli o'z xo'jaligidan ajralgan boylar, shuningdek, BXSР hukumati tarkibida faoliyat yuritib, keyin milliy muxolifat safiga qo'shilgan siyosiy muhojirlarning keyingi taqdiri haqida ma'lumotlar ochib berilgan.

Аннотация

В этой статье раскрывается информация об эмире, который был приговорен к эмиграции из Бухарского эмирата, беки, чиновники, которые переехали вместе с ним в соседнее государство, представители простого народа, такие как дехканы, скотоводы, ремесленники, рабочие, которые неосознанно следовали за эмиром, главаря «басмачских» банд, боровшихся против советского режима и потерпевших поражение; а также их войска, о дальнейшей судьбе богатых, лишившихся своего хозяйства в результате земельной и водной реформы, а также политических эмигрантов, действовавших в составе правительства БССР, а затем вступивших в ряды национальной оппозиции.

Abstract

This article reveals about the emir, who was sentenced to emigrate from the Emirate of Bukhara, the beks, officials who moved with him to a neighboring state, representatives of the common people such as dehkans, pastoralists, artisans, workers who unknowingly followed the emir, the leaders of the "Basmachi" gangs fighting against the Soviet regime and the defeated, as well as their troops, about the fate of the rich, who lost their farms as a result of land and water reform, political emigrants who acted as part of the government of the BSSR, and then joined the ranks of the national opposition

Kalit so'zlar: Muhojirlik, amir, kurash, Turkiston, Afg'oniston, BXSР, Panj, Vaxsh, Maymana va Anxo'y.

Ключевые слова: Эмиграция, эмир, борьба, Туркестан, Афганистан, БХСР, Пяндж, Вахш, Маймана и Анхой.

Key words: Emigration, Emir, Borba, Turkestan, Afghanistan, BXSР, Pyandj, Vakhsh, Maymana and Ankhoy.

KIRISH

Hozirgi kunda Turkiston tarixi, siyosiy jarayonlar oqibatida muhojirlikka chiqib ketishga majbur bo'lgan vatandoshlarimiz taqdiri o'rganish dolzarb masalardan biridir. Jumladan, XX asrning birinchi choragida Buxoro amirligidan Afg'onistonga o'tib ketgan ko'p ming sonli muhojirlar va ularni o'z yurtiga qaytarish, bu vazifalarni ijrosida mas'ul shaxslar haqida ma'lumotlar topish va ularni jamoatchilikka yetkazish maqsadida ushbu tadqiqotga qo'l urdik.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Muammoni o'rganishda bir qator mahalliy va xorijiy adabiyotlar, arxiv fondlari, davriy matbuot materiallari ma'lumotlari taxlili olib borildi. Jumladan, xorijiy adabiyotlardan Ahmad Nayim, Ibrohim Yorqin [15], Murat Yavan [16], Feridun Kandemir [17], Abdulloh Rajab Boysun [13], Ali Bodomchi [14], Zaki Validiy To'g'on [18], Boymirza Hayit [6], Roji Chaqiro'z [19], K.N. Abdullayevlar [1] ning xorijda chop etgan maqolalari va risolalaridan foydalanildi. Shuningdek, BXSРning davriy matbuoti hisoblangan "Buxro axbori" gazetasi, ushbu yo'nalishda ish olib borgan

tarixchi olimlardan R.T.Shamsutdinov, Q.K.Rajabov, Sh.A.Hayitov, S. Badriddinov kabilarning kitob va maqolalarini qiyosiy taxlili mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Muhojirlikka mahkum bo'lganlar orasida amir va u bilan birga qo'shni davlatga ko'chgan bek, ayon, amaldorlar, tushunib-tushunmay amirga ergashgan dexqon, chorvador, hunarmand, mardikor kabi oddiy xalq vakillari, sovet rejimiga qarshi kurashgan va mag'lubiyatga uchragan «bosmachi» to'dalarning qo'rboshilari hamda ularning yigitlari, quloq qilingan, yer-suv islohoti tufayli o'z xo'jaligidan ajralgan boylar, shuningdek, BXSR hukumati tarkibida faoliyat yuritib, keyin milliy muxolifat safiga qo'shilgan siyosiy muhojirlar ham bor edi. Sovet hukumati Afg'oniston bilan yaxshi qo'shnichilik va diplomatik munosabatlardagi barqarorlik garovi muhojirlarni ushbu davlatdan chiqarish, deb hisoblardi. Afg'oniston chegarasidan birgina amir bilan 200-250 ming kishi muhojirlikka ketgandi. Bu haqda amir o'z xotira kitobida: «Bu bandai o'jiz Amudaryodan Afg'oniston tarafga ko'chib o'tayotganimda, Buxoroning eng mo'tabar navkarlaridan taxminan 300 nafari menga hamroh edilar. Shu bilan birga xar bir o'sha eslatib o'tilgan daryo guzargohida (Panj va Vaxsh daryolari birlashadigan Chubek irmog'i haqida so'z yuritilmoqda) bir lak (100 ming nafar) huzurimda to'planishar edilar» - deb yozadi[3]. Ayrim ma'lumotlarda «lak-lak» degan atama ishlatiladiki, bu esa amir bilan qo'shni Afg'oniston hududiga 200 ming va undan ortiq kishilar qo'shni davlat chegaralariga o'tib ketganini anglatadi. Tojikistonlik tarixchi olim K.N.Abdullayev: «Sobiq amir bilan birga 1920-1921 yillarda Tojikistonning janubiy viloyatlaridan qochoqlar soni 200 ming kishidan oshib ketdi. Sharqiy Buxoro axolisining 25 foizi horijga ko'chdi. Qo'rg'ontepa, Ko'lob, Hisor viloyatlarining yarim aholisi Afg'onistonga o'tib ketgan. Tojikiston Inqilobiy Komiteti ma'lumoticha 1925 yilda respublika janubida 49 ta qishloq butunlay aholisiz qolib bo'shab qoldi, bog' va ekin maydonlari tashlandiq to'qay va qamishzorlarga aylanib ketgan [1]». Afg'oniston turli viloyatlari bo'ylab o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoqlar tarqalgan edi. Sobiq Buxoro amirligining Qarshi va Chorjo'y bekliklarida istiqomat qilgan turkmanlar 1920 yil sentabrida amir monarxiyasiga qarshi to'ntarishdan so'ng, Buxorodan Afg'onistonga ommaviy ravishda ko'chib o'tdilar. Arxiv xujjatlarida Chorjo'y va Karki viloyatlarida istiqomat qiluvchi 35 ming oila (ayrim manbalarda 25 ming oila deb ko'rsatiladi) 2 milliondan ortiq katta va kichik tuyoqli chorva mollari bilan Afg'onistonning Maymana va Anxo'y viloyatlariga o'tib ketgan[9] mazmunidagi ma'lumotlar keltiriladi. Buxoro ta'baalari (fuqarolari) bo'lgan ushbu turkmanlardan Afg'oniston hukumati soliq talab qilganligi, ularni BXSRdagi asl yerlariga qaytarish masalasi UmumTurkman qurultoylarida, BXSR va Afg'oniston hukumatlari rahbarlarining bir-birlariga yo'llagan bir qator notalarida bir necha bor ko'tarildi. Turkmanlarni o'z yurtiga qaytarishda Fayzulla Xo'jayev, Hoshim Shoyiq Yoqubov kabi hukumat rahbarlari bilan bir safda Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev ham BXSR MIQraisi sifatida ancha kuch sarflagan[10]. BXSR milliy matbuoti ma'lumoticha Afg'onistonga muhojirlikka ketgan «turkman qochoqlari» taqdiri turfa xil kechdi. Ularning bir qismi BXSRning Chorjo'y va Karki viloyatlariga qaytdi. 1921 yildan 1923 yilning kuziga qadar Karki va Chorjo'y viloyatlariga 3 ming oila turkmanlar qaytarildi. Ularga hukumat tekin oziq-ovqat, chorva mollari, shuningdek, yer-mulk taqsimlab amaliy yordam ko'rsatdi. 1922 – 1923 yillarda Afg'oniston o'z yurtiga qaytgan yo'qsil turkmanlarga yordam sifatida 105 ta xo'kiz, 10 000 pud mosh, 4 000 pud kunjut, 5 000 pud jo'xori 10000 pud bug'doy bilan yordam ko'rsatdi. 1922 yildan boshlab har kuni 300 ta oila turkmani o'z yeriga qaytarish rejasi ishlab chiqilgandi[2,8,9].

Abdurahim Yusufzodaning o'rniga Hoshim Shoyiq Afg'onistonga elchi qilib tayinlanar ekan, uning oldiga «turkman qochoqlari» (manbalarda shu tarzda qayd etiladi)ni Buxoroga qaytarish vazifasi yuklangandi. Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev Afg'oniston hududiga o'tishidan ikki kun oldin (1922 yil 8 aprel) Kobulga yetib kelgan Hoshim Shoyiq Yoqubov «turkmanlar masalasi» bilan shug'ullanishga kirishgan. 1922 yilning aprel oyi o'rtalarida ikki hukumat a'zolari o'zaro uchrashuvida u Usmon Xo'ja kabi sobiq hukumatdoshlariga Afg'onistondagi qochoq turkmanlar va boshqa muhojirlarni Buxoroga qaytarish hamda Hoji To'raqulboy qo'lida (bu shaxs amirning Afg'oniston va Xindistondagi savdo vakili edi, 1930 yil Peshovarda vafot etgan) saqlanayotgan qorako'l terisi savdosidan keladigan mablag'larni ham BXSR hukumati ihtiyoriga olish maqsadida kelganligini bildirgan[5,7,9]. Ayonki, Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev Hoshim Shoyiqning Buxoro muhojirlarini o'z yurtiga qaytarish haqidagi fikrlarini qo'llab quvvatlagan. BXSRga qayta olmagan turkmanlarning boy-badavlat qismi yer-mulk va chorva boqish uchun keng yaylovlarni afg'on

TARIX

mahalliy hukmdorlaridan sotib olishgan va o'z mol-mulklarini hamda jonlarini, oilalarini himoya qilish uchun qurolga ham ega bo'lganlar. Bunday muhojirlar Shimoliy Afg'onistonda zich yashaydigan o'zbek va turkmanlar kabi horijda abadiy yashab qolishdi. Bir qism turkmanlar qo'shni Eron hududiga o'tishdi. Muhojirlik davrida vafot etgan va chegara hududlarida qurolli to'qnashuvlarda halok bo'lganlar oz sonli emasdi[4,12].

XULOSA

Ma'lumki, XX asrning birinchi choragi Turkiston o'lkasi mustaqillik uchun kurash maydoniga aylandi. Natijada ko'plab vatandoshlarimiz siyosiy muhojirlar safiga qo'shildilar va ko'plari vatanjudolikka maxkum etildilar. Bular faqat siyosiy jarayonlar ishtirokchilari emas, balki muhojirlikka o'zi tushunmagan holatda chiqqan dexqonlar, chorvadorlar, xunarmandlar, savdogarlar va ko'proq mol-mulki ko'p bo'lgan boylar edilar. Muxojir o'zbeklarning yozgan asarlari, o'zlari yoki farzandlari bilan o'tkazgan muloqotlarimizdan shu narsa ayon bo'ldiki, ularning keyingi hayotlari, yashash sharoitlari sovet dalaridagidan ko'ra yaxshiroq bo'lishi mumkin edi, biroq ular hayot yo'llarini oxirigacha vatan sog'inchi bilan o'tkazganlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев К. Н. Бухарская послереволюционная эмиграция (к историографии проблемы). Октябрьская революция в Средней Азии и Казахстане: (теория, проблемы, перспективы изучения). – Т.: Фан. 1991. – С. 191-192.
2. Ахрорий М.С. Тўртинчи инқилобий йилимиздан нималар кутамиз // Бухоро ахбори. 199-сон, 1923 йил 9 сентябр;
3. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т.: Фан, 1991. – Б.17.
4. Афғонистон ҳукуматининг эълони // Бухоро ахбори, 95 сон, 1922 йил 12 август;
5. Афғонистондаги туркманлар ҳақида // Озод Бухоро, 68 сон, 1924 йил 29 март;
6. Боймирза Ҳайит. "Basmachilar". Türkistan milli mucadale tarihi (1917-1934). – Ankara, 1997. – 519 s.
7. Ҳайитов Ш. Бадриддинов С. Ўзбекистон бизга ҳам Ватан.... – Бухоро. 2006. – Б.108.
8. Ҳайитов Ш. Бадриддинов С. Ватанжудоликнинг мунгли тарихи. – Бухоро: Бухоро, 2005. – Б.125-126.
9. Уз МА, Р 48-фонд, 1-рўйхат, 171-йиғма жилд, 94,95 varaқлар, 182-йиғма жилд, 328 varaқ, 207-йиғма жилд, 5, 7, 8, 306, 325 varaқлар, 118 йиғма жилд, 2 varaқ;
10. Уз МА, Р 53-фонд, 1-рўйхат, 103 йиғма жилд, 49,50, 53 varaқлар, Р 48-фонд, 1-рўйхат, 131-йиғма жилд, 51, 53 varaқлар;
11. Уз МА, Р 47-фонд, 1-рўйхат, 249 йиғма жилд, 25,30 varaқлар;
12. Уз МА, Р 59-фонд, 1-рўйхат, 53 йиғма жилд, 50, 51, 52, 53 varaқлар.
13. Abdullah Recep Baysun. Turkistan Milli Hareketleri. – Istanbul, 1943. – S. 107-115;
14. Ali Bademci. Turkistanda Enver Paşanın umum muhaberesi Muoluu molba nasifni hatiralari. Sarilli basmaci. – Istanbul, 2010. – 140 s.
15. Ibrahim Yarkin "Koca oglu Osman" // Türk kültürü. Sayı 7 (Avgustus; 1968). – S.122-124.
16. Murat Yavan. Türkistanli aydin ve siyaset adami Osman Kocaoğlinin hayati ve faaliyetleri (1878-1968). Yuksek lisantezi. – Istanbul, 2019. – 100 s.
17. Feridun Kandemur. Osman Kocaoğlu ve bazı hakiketler. Tarih Konuşyor, Aralık 3. 1968. – S. 56-59.
18. Zeki Velidi Togan. Bugünkü türkili Türkistan ve yakin tarihi. – Istanbul, 1984. – 406 s.
19. Raci Çakiroz. Carlik ve Bolşevik Rusyade loyil. Belge yayimlari. – Istanbul, 1990. – 145 s.